

**«ABU NASR FOROBIY»: BUYUK MUTAFAKKIR VA UNING
FALSAFIY-PEDAGOGIK MEROSI****Ismatova Sevara Choriyevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

sevaraismatova85@gmail.com**Xamrokulova Mehribon Kabulovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

xamrokulovamehribon5@gmail.com

Annotatsiya. Abu Nasr Forobiy (870–950) – Sharq uygʻonish davrining eng buyuk mutafakkiri, faylasufi va qomusiy olimi. U falsafa, mantiq, siyosat, axloq, musiqa, taʼlim kabi sohalarida bebaho ilmiy meros qoldirgan. Aristotel falsafasini chuqur tahlil qilib, uni islomiy tafakkur bilan uygʻunlashtirgani uchun “Ikkinchi muallim” nomi bilan mashhur. Uning “Fozil shahar ahlining qarashlari”, “Baxt-saodatga erishish” kabi asarlari komil inson, adolatli jamiyat va tarbiya masalalarini yoritadi. Forobiy taʼlimoti bugungi kunda ham falsafa, pedagogika va ijtimoiy fanlar rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: Abu Nasr Forobiy, Ikkinchi muallim, falsafa, mantiq, taʼlim, fozil jamiyat, komil inson, Sharq uygʻonishi.

Abstract. Abu Nasr al-Farabi (870–950) is the greatest thinker, philosopher and encyclopedist of the Eastern Renaissance. He left an invaluable scientific legacy in such fields as philosophy, logic, politics, ethics, music, and education. He is known as the “Second Teacher” for his in-depth analysis of Aristotle’s philosophy and his integration of it with Islamic thought. His works such as “The Views of the Virtuous City’s People” and “Achieving Happiness” shed light on the issues of the perfect person, a just society, and education. Al-Farabi’s teachings continue to play an important role in the development of philosophy, pedagogy, and social sciences today.

Keywords: Abu Nasr Al-Farabi, Second Teacher, philosophy, logic, education, virtuous society, perfect man, Eastern Renaissance.

Kirish. Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida Sharq mutafakkirlarining oʻrni beqiyosdir. Ular yaratgan ilmiy-falsafiy meros asrlar oʻtgan boʻlsa ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Ana shunday allomalardan biri Abu Nasr Forobiy boʻlib, u oʻrta asr Sharq falsafasining eng yirik vakili sanaladi. Forobiy oʻzining serqirra ijodi bilan falsafa, mantiq, siyosat, axloq, musiqa va pedagogika fanlarining rivojiga ulkan hissa qoʻshgan.

Forobiy qadimgi yunon falsafasini, xususan, Aristotel ta'limotini chuqur o'rganib, uni Sharq tafakkuri bilan uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Shu sababli u ilm tarixida "Ikkinchi muallim" (Aristotel "Birinchil muallim" hisoblanadi) nomi bilan tanilgan. Mutafakkirning qarashlari jamiyat taraqqiyoti, adolatli boshqaruv, komil inson tarbiyasi va baxt-saodatga erishish masalalarini qamrab oladi.

Forobiyning "Fozil shahar ahlining qarashlari", "Baxt-saodatga erishish", "Musiqqa ilmi haqida katta kitob" kabi asarlari nafaqat o'z davri, balki hozirgi zamon ijtimoiy-falsafiy va pedagogik tadqiqotlari uchun ham muhim manba hisoblanadi. Uning ta'limiy va axloqiy g'oyalari yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda, jamiyatda ma'naviy muhitni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Shu bois, Abu Nasr Forobiy hayoti va ilmiy merosini o'rganish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Asosiy qism.

Forobiyning hayot yo'li. Farobiy Sirdaryo sohilidagi Farob (O'tror) degan joyda turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. O'sha davrda Movarounnahrda somoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Bo'lajak faylasuf boshlang'ich bilimni O'trorda olgan, so'ngra o'qishini Toshkent, Samarqand va Buxoroda davom ettirgan.

Forobiy ilmini yanada chuqurlashtirish maqsadida Bag'dodga yo'l oladi. Yo'l-yo'lakay Eronning yirik shaharlari – Ray, Hamadon, Isfahon va boshqa joylarda bo'ladi. Bag'dodda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to'plangan edi. Bu yerda u ko'zga ko'ringan olimlar bilan tanishdi, yunon falsafiy maktabi namoyandalari bilan ilm sirlarini o'rgandi. Masalan, Abu Bashir Matta ibn Yunusdan (870–940) yunon tili va falsafasini, Yuhanno ibn Haylondan (860–920) esa tibbiyot va mantiq ilmini o'rgangan. Ba'zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan.

Olim 941-yildan Damashqda muhtojlikda yashay boshlaydi. Shunga qaramay, ilm bilan shug'ullanishdan to'xtamaydi, falsafa va boshqa fanlar sohasida tadqiqot olib boradi. Halab hokimi Hamdoniylar sulolasidan bo'lgan Sayfuddavla (hukmronlik yillari 943–967) olimlarning homiysi sifatida tanilgan edi. U Forobiyning o'z saroyiga taklif etadi, lekin Forobiy saroyga bormasdan, erkin hayot kechirishni ma'qul ko'radi. Aynan Halabda u ko'plab asarlarini yozadi. Forobiy 949–950 yillarda Misrda, so'ngra yana Damashqda yashaydi va shu yerda umrining oxirgi kunlarini o'tkazadi. U Damashqdagi "Bob assag'ir" qabristoniga dafn etilgan.

Ilmiy merosi va asarlari. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, Forobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, saqlanib

qolgan risolalari uning buyuk olim ekanligidan dalolat beradi. Uning eng mashhur asarlari qatoriga quyidagilar kiradi: “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Musika haqida katta kitob”, “Baxt-saodatga erishish”, “Aql to‘g‘risida”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida”, “Aristotel “Metafizika” kitobining maqsadi to‘g‘risida” va boshqalar.

Forobiy asarlari 20-asrning 70–80-yillarida Toshkent va Olmaotada “Falsafiy risolalar”, “Mantiqiy risolalar”, “Matematik risolalar”, “Ijtimoiy-axloqiy risolalar”, “Tadqiqotlar va tarjimalar” nomlari ostida rus tilida nashr etilgan.

Forobiyning ilmlar tasnifi. Forobiy o‘rta asrda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratgan. U “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Ilmlarning tasnifi haqida” nomli risolalarida o‘sha davrda ma‘lum bo‘lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tavsifi va tafsilotini bayon qilgan. Mutafakkir tabiat va inson organizmiga xos bo‘lgan tabiiy jarayonlarni o‘rganuvchi ilm sohalarini birinchi o‘ringa qo‘ygan.

Forobiy ilmlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. **Til haqidagi ilm** – grammatika, orfografiya, she‘riyat, to‘g‘ri yozuv va boshqalar.
2. **Mantiq** – sakkiz bo‘limdan iborat: tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalar.
3. **Matematika** – arifmetika, geometriya, astronomiya, mexanika, optika, musiqa nazariyasi.
4. **Tabiiy ilmlar va metafizika** – fizika, biologiya, ilohiyot.
5. **Shahar haqidagi ilm** – siyosiy ilm, fiqh, pedagogika, axloqshunoslik, kalom.

Forobiy fanlarni tasniflashda borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etishidan kelib chiqadi. Uning fikricha, fanlar bir-birini inkor etmaydi, balki o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi. Ularning barchasi dunyoni idrok qilishga va insonlarning baxt-saodatga erishishiga qaratilgandir. Masalan, matematika, tabiatshunoslik va metafizika inson aql-zakovatini boyitishga xizmat qilsa, grammatika, she‘riyat va mantiq bilimlardan to‘g‘ri foydalanish, ularni boshqalarga tushuntirish (aqliy tarbiya) uchun kerak. Siyosat, axloq va pedagogika esa kishilarning jamiyatdagi uyg‘unligi va ijtimoiy hayot qoidalarini o‘rgatadi.

Borliq haqidagi ta‘limoti. Mutafakkir borliq muammosini “vujudi vojib” (zaruriy mavjudlik) va “vujudi mumkin” (mumkin mavjudlik) ta‘limotidan kelib chiqib tushuntiradi. Unga ko‘ra, “vujudi vojib” – bu Xudodir. U barcha mavjud yoki paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalarning birinchi sababchisidir. Xudo birinchi sabab

sifatida boshqa sabab va turtkiga muhtoj emas. U yaratadi, lekin O'zi yaratilmaydi. Xudoning zotiga qarama-qarshilik, ziddiyat, nuqsonlar, beqarorlik xos emas.

“Vujudi mumkin” esa barcha yaratilgan narsalarni anglatadi. Forobiy tabiat, ashyo va jismlarning paydo bo'lishini izchillik va zaruriyat asosidagi tadrijiy jarayonlar deb biladi. U butun mavjudotni sabab va oqibat nuqtai nazaridan olti darajaga (sabab) ajratadi: Xudo – birinchi sabab; ikkinchi sabab – osmon jismlari; so'ng faol aql, jon (annafs), shakl (assurat), modda (almodda). Xudo vojibul vujud (zaruriy mavjudlik) bo'lsa, qolganlari – mumkin mavjudlikdir. Barcha narsalar bir-biri bilan sababiy bog'langan. Xudo birinchi bo'lib “faol aql”ni yaratadi, aql esa har bir sayyora xos aqlni yaratadi. Eng so'nggi samoviy aql natijasida Yerdagi aql-ruh va to'rt unsur (tuproq, havo, olov, suv) paydo bo'ladi. To'rt unsurdan esa o'simlik, hayvon, inson va jonsiz tabiat vujudga keladi. Forobiyning borliq haqidagi ta'limoti keyingi davrlarda hurfikrlikning keng yoyilishida muhim rol o'ynagan.

Bilish (gnoseologiya) haqidagi qarashlari. Forobiyning bilish haqidagi ta'limoti ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida alohida o'rin tutadi. Bu boradagi fikrlarini u “Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima”, “Mantiqqa kirish”, “Aql to'g'risida”, “Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi” kabi asarlarida bayon qilgan. Mutafakkir insonni yer yuzidagi oliy mavjudot deb ta'riflab, uning bilish qobiliyati va atrofdagi narsa-hodisalarni idrok etish kuchiga yuqori baho beradi. U aqlni bilishning asosiy vositasi deb hisoblaydi va insonni doimiy ravishda ilm olishga, haqiqatni izlashga undaydi.

Abu Nasr Forobiyning mening hayotimda tutgan o'rni.

Abu Nasr Forobiy mening hayotimda ilmga bo'lgan munosabatimni, tafakkur tarzimi va maqsadlarimni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Uning asarlari orqali men bilimning faqatgina ma'lumot yig'ish emas, balki insonni ma'naviy yetuklikka yetaklovchi kuch ekanini chuqur angladim. Forobiyning ilm, aql va axloq haqidagi qarashlari meni doimo o'z ustimda ishlashga, fikrlarimni mantiqiy asoslashga va ongli qarorlar qabul qilishga undaydi.

Forobiyning “baxt-saodatga erishish” haqidagi ta'limoti mening hayotiy qarashlarimda alohida ahamiyat kasb etadi. U baxtni moddiy boylikda emas, balki bilim, halollik, mehnatsevarlik va axloqiy poklikda ko'radi. Bu g'oya menga hayotda to'g'ri yo'l tanlash, qisqa manfaatlar ortidan quvmasdan, uzoq muddatli maqsadlar sari intilish zarurligini anglatdi.

Shuningdek, Forobiyning “fozil jamiyat” haqidagi qarashlari meni jamiyat oldidagi mas'uliyatimni chuqur his etishga o'rgatdi. Unga ko'ra, har bir inson jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi kerak. Bu fikr mening o'qishimda, kelajakdagi

kasbiy faoliyatimda va atrofdagilar bilan munosabatimda adolatli, mas'uliyatli va foydali bo'lishga intilishimga sabab bo'lmoqda.

Abu Nasr Forobiy mening hayotimda faqat tarixiy shaxs emas, balki ilmga, ma'naviyatga va komillikka yetaklovchi ruhiy ustoz sifatida muhim o'rin tutadi. Uning g'oyalari menga nafaqat bilim olishda, balki inson sifatida kamol topishda yo'l-yo'riq berib kelmoqda.

Xulosa. Abu Nasr Forobiy Sharq va jahon ilm-fanida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirdir. Uning ilmiy va falsafiy merosi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Forobiyning ilm, aql, axloq va jamiyat haqidagi qarashlari insonni komillikka yetaklash, adolatli va ma'rifatli jamiyat barpo etish g'oyalari xizmat qiladi. U ilgari surgan fikrlar zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar bilan hamohangdir.

Forobiy ta'limoti shuni ko'rsatadiki, insonning haqiqiy baxti bilimga intilish, axloqiy poklik va jamiyat manfaatiga xizmat qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Uning "fozil jamiyat" haqidagi qarashlari bugungi kunda ham yosh avlodni mas'uliyatli, vatanparvar va ongli shaxs sifatida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki har bir insonning shaxsiy hayotida ma'naviy yo'l-yo'riq beruvchi bebaho boylikdir. Uning g'oyalari bizni ilmga sadoqatli, axloqan yetuk va jamiyat oldidagi burchini chuqur anglaydigan shaxslar bo'lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy A.N. Baxt-saodatga erishish haqida. – Toshkent: O'zbekiston, 2004.
2. Forobiy A.N. Musiqa ilmi haqida katta kitob. – Toshkent: Fan, 1975.
3. Forobiy A.N. Falsafiy risolalar. – Toshkent: Fan, 1975.